
The pragmatic functions of the French language units used in Russian literary texts

Khalmuradova Zebiniso Shavkatovna
PhD,
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotation *The present article demonstrates analysis of pragmatic functions of the French language units used in Russian literary works. The extracts from original texts are compared with their Uzbek translation version.*

Keywords *Literary personage, French language units, pragmatic meaning, pragmatic functions, linguocultural peculiarities*

Rus badiiy matnlarda qo'llanilgan fransuz lisoniy birliklarning pragmatik xususiyatlari

Xalmuradova Zebiniso Shavkatovna
PhD,
Samarkand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya *Mazkur maqolada rus badiiy asarlarda qo'llanilgan fransuz birliklarning pragmatik vazifalari tadqiq qilingan. Maqolada aslyat matndan tanlangan kontekstlar va ularning o'zbekcha tarjimai tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar *Badiiy peronaj, fransuz lisoniy birliklar, pragmatik ma'no, pragmatik vazifa, lingvomadaniy xususiyatlar*

Прагматические особенности французских языковых единиц, использованных в русских художественных текстах

Халмурадова Зебинисо Шавкатовна
PhD,
Самаркандский государственный институт иностранных языков

Аннотация *В настоящей статье исследуются прагматические функции французских языковых единиц, использованных в русских художественных произведениях. В статье рассматриваются отрывки из оригинальных текстов и их узбекских перевод.*

Ключевые слова *Художественный персонаж, французские языковые единицы, прагматическое значение, прагматические функции, лингвокультурологические особенности*

Til va nutq dixotomiyasi zamonaviy lingvistika rivoji uchun muhim rol o'ynaydi. Mazkur hodisa F.Sossyur va dunyoning turli ilmiy markazlaridagi olimlar e'tiborini tortgan. Jumladan, F. Sossyur o'z ilmiy ishlarida til va

nutq o'zaro bog'liqligini quyidagi qarama-qarshilik jihatlari doirasida tahlil qilgan: sotsial / individual, abstrakt / aniq, passiv / aktiv, mental / jismoniy, virtual / real va h.k. (Sossyur, 1977; 57).

R. Engler fikriga ko'ra, lisoniy faoliyat tilning faollashuvi uchun zamin yaratadi (Engler, 1998; 16). Til jamiyat uchun xizmat qiladi, zero insonlar jamiyatda til yordamida o'z nutqini yaratadi. Lisoniy tajriba shuni ko'rsatadiki, lisoniy faoliyatni ta'minlanuvchi tamoyillar boshqa aspektlar tamoyillaridan farqlanadi. Bu aspektlar bir biri bilan bog'liq bo'lsa-da, ular mustaqil harakatlanadi.

Badiiy asarlarda insoniy qadriyatlarini tasvirlash uchun turli lisoniy vositalardan foydalaniladi. Badiiy matnning uslubiy xususiyatlariga murojaat qilish ham samarali bo'lib tuyuladi, bu badiiy matndagi lisoniy birliklar ishlashining o'ziga xos xususiyatlari va ularning o'quvchiga ta'siri haqidagi zamonaviy tasavvurlarni kengaytiradi (Lazareva, 2019; 8).

Lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, ushbu xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish tilning ijtimoiy tabiatini aniqlash uchun muhimdir. Bu lisoniy muloqot ijtimoiy va lingvistik qonunlarga muvofiq yuz berishiga oid dalillarni izlashga imkon beradi. Ijtimoiy tajriba ko'lamini tufayli kommunikativ vaziyatlar o'zgaradi va dastlab oddiy tuzilma bo'lgan pragmatik tuzilma vaqt o'tishi bilan o'zgarib, yanada murakkablashadi. Shunday ekan, lingvistik tahlilni pragmatikadan boshlash kerak (Safarov, 2018; 41).

Badiiy matn tahlilida nafaqat so'z tarkibiga, balki kommunikativ holatlarning pragmatik mazmuniga ham e'tibor berish lozim.

Darhaqiqat, badiiy asar matni intellektual, emotsional xususiyatlarga ega va shuning uchun kitobxon ongi va tasavvuriga ta'sir o'tkazadi. Quyidagi kontekstda bir qator pragmatik ma'nolar taqdim etilgan: salomlashish, xushmuomala murojaat, tabriklash va ijobiy baho berish (kompliment):

Bonjour, ma chère, je vous félicite, - сказала гостья. - Quelle délicieuse enfant! - прибавила она, обращаясь к матери (Толстой «Война и мир», т. 1; 36).

Tarjimada barcha pragmatik vazifalar saqlangan:

Salomatmisiz, azizim, bayramingiz qutlug' bo'lsin, - dedi mehmonxonim, so'ngra qizning onasiga murojaat qildi. - Ajoyib farzand ekan-a! (Tolstoy "Urush va tinchlik", I, II kitoblar; 62).

Rus yozuvchilari romanlarida qo'llanilgan fransuzcha so'zlar turli pragmatik vazifalarni bajaradi. Masalan, quyidagi parchada personaj do'stiga mo'ljallangan maslahatini fransuz tilida ifodalamoqda:

- Ah mon ami! - сказала она с тем же жестом, как утром с сыном, дотрагиваясь до его руки, - croyez, que je souffre, autant que vous, mais soyez homme. Soyez homme, mon ami, c'est moi qui veillerai à vos intérêts, - сказала она в ответ на его взгляд и еще скорее пошла по коридору (Толстой «Война и мир», т. 1; 71-72). Maslahatning ma'nosi: *"Do'stim, ishonimga, men ham qiyinlayman, ammo siz o'zingizni erkaklarча tutishingiz kerak. Siz erkak bo'lishingiz kerak, men esa manfaatlaringizni qo'llab-quvvatlayman"*. Mazkur kontekstda personajning o'z nutqini fransuzcha bayon etgani katta ahamiyatga ega. Birinchidan, bu personaj bilan do'sti o'rtasidagi sir ekanligi, ikkinchidan, ularning o'rtasidagi munosabatlarning yaqinligini namoyish etadi.

Norozilik ma'nosi nutqiy aktda turli darajalarda ifodalanadi. Masalan, quyidagi misolda fransuz tilida bayon qilingan norozilikning ma'nosi juda kuchli:

В эту минуту дверь, та страшная дверь, на которую так долго смотрел Пьер и которая так тихо отворялась, быстро с шумом откинулась, стукнув об стену, и средняя княжна выбежала оттуда и вплеснула руками. Что вы делаете! - отчаянно проговорила она, - Il s'en va et vous me laissez seule (Толстой «Война и мир», т. 1; 79). Ma'nosi: "U o'lim to'shagida yotibdi, siz esa meni bir o'zimni tashlab ketmoqchisiz! Fransuz tilida bayon qilingan gap tanbeh berish, hatto urushish pragmatik vazifasini bajaradi.

Yana bir kontekstni tahlilga tortamiz:

Mon ami! - сказала мать умоляющим голосом, опять дотрагиваясь до руки сына,

как будто это прикосновение могло успокаивать или возбуждать его (Толстой «Война и мир», т. 1; 45).

O'zbek matnda tarjimon o'zgarishni kiritgan: mon ami – "do'stim" o'rnida "jigarim" deb tarjima qilgan, ammo aynan shu o'zgarish tufayli matn adekvat tarjima qilingan:

Jigarim!_– dedi onasi yalingan tovush bilan yana o'g'lining qo'lini ushlab, xuddi bu ushlashi o'g'liga tasalli beradigan yoki uning g'ashiga tegadiganday (Tolstoy "Urush va tinchlik", I, II kitoblar; 78).

Badiiy matnda personaj tomonidan fransuz tilida aytilgan maslahatning yana bir misolini keltiramiz:

– *Voyons, ma bonne Анна Михайловна, laissez faire Catiche* (Толстой «Война и мир», т. 1; 78). Ya'ni: "Azizim Anna Mixaylovna, qo'ying o'sha Katishni, istaganini qilaversin". Pragmatik nuqtai nazardan mazkur parchada fransuz tilida ifodalangan fikr yupatish va tinchlantirish vazifasini bajaradi. So'zlovchi nutq ob'yekti bo'lmish Katishni taniydi, uning tarafini olmasa-da, uni tinch qo'yishning tarafdori.

Iltimos qilish kabi pragmatik vazifa badiiy matnda ko'proq fransuzcha leksika yordamida voqelanadi:

– *Я знаю, милая, добрая княжна, – сказала Анна Михайловна, хватаясь рукой за портфель и так крепко, что видно было, она не скоро его пустит. – Милая княжна, я вас прошу, я вас умоляю, пожалейте его. Je vous en conjure...* (Толстой «Война и мир», т. 1; 78). Ma'nosi: "Sizdan iltimos qilaman". Fransuzcha aytilgan iltimos so'zlovchining xushmuomaligidan darak berardi.

Quyidagi matnda birgina fransuzcha so'z qo'llanilgan bo'lsa-da, u o'ziga xos pragmatik ma'noga ega:

Я знаю, что я всегда буду первую confidente моих дочерей и что Николенька, по своему пылкому характеру, ежели будет шалить (мальчику нельзя без этого), то все не так, как эти петербургские господа (Толстой «Война и мир», т. 1; 39). "Confidente" so'zi "maslahatchi" ma'nosini ifodalaydi.

Tarjima matnida ham mazkur so'z fransuzcha berilgan va sahifa ostida uning ma'nosi yozilgan: "maslahatchi":

...hamma vaqt qizlarimning birinchi confidente o'zim bo'laman. Nikolinka ham ming sho'x bo'lmasin (bola albatta sho'x bo'ladi-yu), harqalay, peterburglik yoshlarday bo'lmaydi (Tolstoy "Urush va tinchlik", I, II kitoblar; 67).

Navbatdagi parchada va'da berganligini eslatish kabi pragmatik ma'no fransuzcha ifodalangan:

Mon cher, vous m'avez promis, – обратилась она опять к сыну, прикосновением руки возбуждая его (Толстой «Война и мир», т. 1; 46).

Ya'ni, do'stim, menga va'da bergansiz.

O'zbek tilidagi matn:

U yana qo'l tekkizishi bilan o'g'lining g'ashiga tegib:

Do'stim, menga so'z bergansan, – dedi (Tolstoy "Urush va tinchlik", I, II kitoblar; 78). Asliyat matnida ona o'g'liga "siz" deb murojaat qiladi, tarjimada "bergansan" so'zi ishlatilgan. Ko'rib turibmizki, asliyat matnidagi strukturaga tarjimada o'zgarishlar kiritilgan, ya'ni avval onaning harakati tasvirlangan, undan keyin esa, nutqi.

Keyingi parchadagi so'roq gap orada ko'p vaqt o'tganligiga ishora qiladi:

– *Bonjour, ma cousine, – сказал Пьер. – Vous ne me reconnaissez pas?* (Толстой «Война и мир», т. 1 ; 49). Ma'lumki, *cousine* so'zi qarindoshlikning ikkinchi darajasini ifodalaydi, ya'ni unga "xolavachcha", "tog'avachcha", "amakivachcha" va "ammavachcha" kabi o'zbek karindoshlik terminlari mos keladi. Tarjimada bu so'zlardan qay birini ishlatish kerakligi noaniq bo'lgani uchun, tarjimon uni "singlim" deb o'g'irgan:

Salom, singlim, – dedi Pyer. – Meni tanimayapsizmi? (Tolstoy "Urush va tinchlik", I, II kitoblar; 84).

Rus badiiy matnlari XVIII-XIX asrlarda dvoryanlarning ismi, laqabi, turli lavozim va unvonlarini fransuzcha e'lon qilinishini isbotlaydi:

Генерал-аншеф князь Николай Андреевич, по прозванию в обществе le roi de Prusse, - с того времени, как при Павле был сослан в деревню и жил безвыездно в своих Лысых Горах с дочерью княжною Марьей, и при ней компаньонкой, m-lle Bourienne (Толстой «Война и мир», т. 1; 81). Mazkur kontekstda “*le roi de Prusse*” – Prussiya qiroli, “*m-lle Bourienne*” – madmuazel Buriyen.

Yana bir misol keltiramiz:

На днях у Апраксиных я слышала, как одна дама спрашивает: «C'est ça le fameux prince André?» Ma parole d'honneur! – Она засмеялась. – Он так везде принят (Толстой «Война и мир», т. 1; 24). Fransuzcha replikaning tarjimasini: “Bu kishi taniqli knyaz Andrey mi? Chin so'zim!”

Antroposentrik tilshunoslikda insonning oilaviy ahvolini ifodalovchi til birliklar alohida ahamiyatga ega (Nasrullayeva, 2018; 199). XVIII asrda odatda rus dvoryan oilalardagi bolalar ota-onasiga fransuzcha so'zlarni ishlatib murojaat qilardi:

Mon père, André? – сказала неграциозная, неловкая княжна с такой невыразимой прелестью печали и самозабвения, что отец не выдержал ее взгляда и, всхлипнув, отвернулся (Толстой «Война и мир», т. 2; 26). Mazkur kontekstdan ma'lum bo'ldiki, qiz otasiga “Otaxonim, Andre!” deb murojaat qilgan. Demak, otaga bunday murojaat qilish rus dvoryanlariga xos kommunikativ norma edi. Bu o'ziga xos moda va farovonlikning nishonasi edi. Fransuzcha murojaat ikki asr davomida dvoryan oilalarida saqlangan va yosh bolalarga o'rgatishgan.

Haqiqatdan ham, farzandlar o'z ota-onasiga ham fransuzcha murojaat qilish odatiy edi:

– *Прочтите хоть это, mon père, – отвечала княжна, краснея еще более и подавая ему письмо* (Толстой «Война и мир», т. 1; 83). “*Mon père*” so'z birikmasi “otam” ma'nosini ifodalaydi.

Rus aristokratlar jamoasida do'stlar va dugonalar ham bir-biriga fransuzcha murojaat qilishardi. Do'st va dugonalar aynan dvoryan

jamiyatdan bo'lgani uchun, fransuz tilida bimalol gaplashardi. Fransuzcha murojaat o'zgacha hurmat izhor qilish bilan birgalikda, nutqqa oro qo'shardi hamda atrofda odamlarning e'tiborini tortardi:

Ma bonne amie, – сказала маленькая княгиня утром 19 марта после завтрака, и губка ее с усиками поднялась по старой привычке (Толстой «Война и мир», т. 2; 27). Belgilangan so'z birikmasi “aziz do'stim” ma'nosini anglatadi. Bu gapda nafislik, aslzodalik ifori yaqqol namoyon bo'lmoqda.

L.N. Tolstoy badiiy qahramonlari o'z replikalarida ruscha va fransuzcha so'zlarni birgina jumlada nihoyatda mahoratli ishlatishgan. Bunday bilingvizm ularning nutqiga o'ziga xos chiroy va xushohanglik qo'shadi:

Тут князь Ипполит задумался, видимо с трудом соображая.

– *Она сказала ... да, она сказала: «Девушка, надень livrée (livrée, yani kiyib ol) и поедем со мной, faire des visites»* (xabar olishga boramiz) (Толстой «Война и мир», т. 1; 20).

O'tgan asrlarda rus dvoryanlari uchun bir birlariga fransuzcha salom berish va xushmuomala so'zlarni aytish odatiy hol bo'lib qolgan edi:

– *Avant tout dites-moi, comment vous allez, chère amie? Успокойте меня, – сказал он, не изменяя голоса и тоном, в котором из-за приличия и участия просвечивало равнодушие и даже насмешка* (Толстой «Война и мир», т. 1; 4). Ma'lumki, personaj kommunikativning umumiy hol-ahvolini so'ramoqda. O'zbek lisoniy madaniyatiga xos tarjimon mazkur jumlaning quyidagicha tarjima qilgan:

Аввал айтинг, азизим, саломатлигингиз қалай? Мени хотиржам қилинг, – деди князь овозини о'згартмасдан, ammo uning odob va mehribonlik uchun aytgan so'zlarida beparvolik va hattoki istehzo ohangi borligi bilinib turar edi (Tolstoy “Urush va tinchlik”, I, II kitoblar; 5).

Rus badiiy asarlarida fransuz tilidagi nutqiy formulalar tez-tez qo'llanilgan:

Медведя-то, говорит, как не бояться? Да как увидишь его, и страх прошел, как бы только не ушел! Ну, так-то и я. Demain, mon cher! (Толстой «Война и мир», т. 2; 18). Mazkur nutqiy formuladan xayrlashish maqsadida foydalaniladi va "Xayr, azizim!" ma'nosini ifodalaydi. Keltirilgan parchada

personaj nutqini rus tilida bayon qilsa-da, birdaniga fransuzcha xayrlashdi. Demak, fransuzcha gaplar ko'proq nutqning boshida va oxirida qo'llanilardi. Bunday xayrlashish, bir tomondan, odamlarning diqqatini tortadi, boshqa tomondan esa, so'zlovchi oqsuyaklardan ekanligi haqida darak beradi.

References:

1. Лазарева, О. А. (2019). Средства художественной выразительности в поэзии местных авторов. *Юный ученый*, 8(28), 8–12.
2. Насруллаева, Н. З. (2018). *Формирование гендерных концептов в английской и узбекской фразеологических картинах мира* (Докторская диссертация). Ташкент.
3. Сафаров, Ш. С. (2018). *Лингвистика дискурса*. Челябинский государственный институт культуры.
4. Соссюр, Ф. де. (1977). *Труды по языкознанию*. Прогресс.
5. Толстой, Л. Н. (1987). *Война и мир* (Т. 1). Просвещение.
6. Толстой, Л. Н. (1987). *Война и мир* (Т. 2). Просвещение.
7. Энглер, Р. (1998). Идеальная форма лингвистики Соссюра. В Н. А. Слюсарева (Ред. пер.), *Курс общей лингвистики* (сс. I–XXI). Прогресс.
8. Tolstoy, L. (2016). *Urush va tinchlik: Birinchi va ikkinchi kitoblar* (A. Qahhor & K. Qahhorova, Tarj.). Yangi asr avlodi.